

BADIY TARJIMADA ERKALASHNING GENDER-PRAGMATIK FUNKSIYASI

Xodjayevo Shaira Rustamovna,

*Alisher Navoiy nomidagi Toshkent davlat o'zbek tili va adabiyoti
universitetining mustaqil izlanuvchisi*

hodjaeva.s.r@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada badiiy tarjimada erkalash ma'nosini ifodalovchi birliklarning gender-pragmatik funksiyasi "Romeo va Julyetta" hamda "Hamlet" tragediyalari va ularning M. Shayxzoda hamda J. Kamol tarjimalari misolida tahlil qilinadi. Tadqiqot erkalash birliklarining subyekt-adresat tizimi, illokutiv kuchi, kommunikativ vazifasi hamda genderga xos qo'llanish farqlarini aniqlashga qaratiladi. Natijalar erkalash birliklari dialogik diskursda yaqinlik, ierarxiya va munosabat dinamikasini belgilashini, tarjimada esa ularning semantik mazmuni bilan birga pragmatik ta'siri va gender yuklamasini saqlash zarurligini ko'rsatadi.

Kalit so'zlar: badiiy tarjima, erkalash birliklari, gender pragmatika, badiiy matn, pragmatik funksiya, dialogik diskurs, kommunikativ ta'sir.

Аннотация. В данной статье анализируется гендерно-прагматическая функция единиц, выражающих значение ласки в художественном переводе, на материале трагедий «Ромео и Джульетта» и «Гамлет», а также их переводов, выполненных М. Шайхзодой и Ж. Камолом. Исследование направлено на выявление системы субъект-адресат ласкательных единиц, их иллокутивной силы, коммуникативной функции и гендерных различий в их употреблении. Результаты показывают, что ласкательные единицы в диалогическом дискурсе определяют степень близости, иерархию и динамику отношений между персонажами. В переводе же необходимо сохранять не только их семантическое содержание, но и прагматическое воздействие и гендерную нагрузку.

Ключевые слова: художественный перевод, ласкательные единицы, гендерная прагматика, художественный текст, прагматическая функция, диалогический дискурс, коммуникативное воздействие.

Abstract. This article analyzes the gender-pragmatic function of the terms of endearment in literary translation using the tragedies "Romeo and Juliet" and "Hamlet" and their Uzbek translations by M. Shaykhzoda and J. Kamol as examples. The study aims to identify the subject-addressee system of endearment units, their illocutionary force, communicative function, and gender-specific differences in their use. The results demonstrate that endearment expressions in dialogic discourse indicate the degree of intimacy, hierarchy, and relational dynamics between characters. In translation, it is therefore essential to preserve not only their semantic meaning but also their pragmatic effect and gendered communicative load.

Keywords: literary translation, terms of endearment, gender pragmatics, literary text, pragmatic function, dialogic discourse, communicative effect.

Kirish. Badiiy matnda erkalash ma'nosini ifodalovchi til birliklari hissiy yaqinlikni ifodalash bilan birga, genderga xos nutq jihatlarini namoyon etuvchi muhim pragmatik vosita sifatida namoyon bo'ladi. Erkak va ayollar nutqida erkalashning semantik ko'lami, qo'llanish darajasi hamda kommunikativ vazifasi turlicha bo'lib, bu farqlar ijtimoiy rol, madaniy me'yor va diskurs kontekstiga bog'liq ravishda shakllanadi. Dialogik matnlarda erkalash birliklari qahramonlar o'rtasidagi munosabat, ierarxiya va yaqinlik darajasini belgilovchi muhim ko'rsatkich hisoblanadi. Tarjima jarayonida esa ushbu birliklarning gender-pragmatik xususiyatlarini to'g'ri anglash va ularning ma'no hamda kommunikativ yuklamasini saqlash dolzarb masalalardan biridir. Mazkur maqolada badiiy tarjimada

erkalashning gender-pragmatik funksiyasi tahlil qilinib, uning sotsiolingvistik ahamiyati ilmiy asosda yoritiladi.

Adabiyotlar tahlili va metodlar. Erkalash birliklarining gender-pragmatik xususiyatlarini badiiy tarjima doirasida o'rganish ko'p tarmoqli nazariy asosni talab etadi. Ushbu masala pragmatika, gender lingvistika va tarjimashunoslik fanlari nuqtayi nazaridan ko'rib chiqiladi.

Pragmatik yondashuv nuqtayi nazaridan, J.L.Ostin nutq aktlari nazariyasida til birliklari faqat ma'lumot uzatish vositasi emas, balki harakat bajarish shakli ekanini ta'kidlaydi. Uning fikricha, har bir nutqiy birlik illokutiv kuchga ega bo'lib, muayyan kommunikativ maqsadni amalga oshiradi. Erkalash birliklari ham aynan illokutiv kuch orqali yaqinlik, mehr, itoatkorlik yoki hokimiyat munosabatlarini yuzaga chiqaradi. Shu bois ularni tahlil qilishda ularning bajaradigan nutqiy funksiyasini aniqlash muhimdir [1: 94-120].

Pragmatik munosabatlar va ijtimoiy masofa masalasini P. Braun va S. Levinson o'zlarining xushmuomalalik nazariyasida batafsil yoritadilar. Ularning "positive face" va "negative face" tushunchalari erkalash birliklarini gender nuqtayi nazaridan tushuntirishda samarali vosita bo'la oladi [2: 61-68]. "Positive politeness" strategiyasi sifatida qo'llaniladigan erkalash birliklari suhbatdoshga yaqinlik va birdamlik signalini beradi. Biroq gender omili bu jarayonda muhim rol o'ynaydi: ayol nutqida erkalash ko'proq yaqinlikni kuchaytirishga xizmat qilsa, erkak nutqida ba'zan himoya, egalik yoki ijtimoiy ustunlikni ifodalashi mumkin [2: 101-107].

Pragmatik ma'no va implitsit kommunikativ mazmun masalasi H.P.Grays tomonidan ishlab chiqilgan kooperativlik prinsipi orqali izohlanadi. Grays nutq jarayonida suhbatdoshlar o'zaro tushunishni ta'minlash uchun ma'lum kommunikativ qoidalarga amal qilishini ta'kidlaydi. Uning "implikatura" tushunchasi nutqdagi yashirin ma'no va niyatlarni aniqlash imkonini beradi. Ushbu nazariy yondashuv erkalash birliklarini tahlil qilishda ham muhim ahamiyatga ega, chunki bunday birliklar ko'pincha ochiq semantik ma'nodan tashqari qo'shimcha pragmatik mazmuni ham ifodalaydi [3: 34]. Badiiy matnda erkalash birliklari orqali qahramonlar o'rtasidagi hissiy yaqinlik, hurmat yoki ijtimoiy masofa kabi munosabatlar implitsit tarzda ifodalanishi mumkin.

Gender lingvistika sohasida R. Lakoff ayollar nutqiga xos til xususiyatlarini tahlil qilib, unda emotsionallik va yumshoqlik unsurlari ko'proq uchrashini qayd etadi. Lakoff ayollar nutqida diminutivlar va affektiv birliklar faolroq ekanini ta'kidlaydi [4: 45-57]. Ushbu qarash erkalash birliklarini gender asosida tahlil qilish uchun nazariy asos yaratadi. Badiiy matnda ayol va erkak qahramonlarning erkalashdan foydalanish darajasi ularning ijtimoiy pozitsiyasi va gender roli bilan chambarchas bog'liq bo'lishi mumkin.

Rus tilshunosligida pragmatik va tarjimaviy muammolarni tizimli ravishda o'rgangan olimlardan biri V. Komissarov hisoblanadi. U tarjimada adekvatlik tushunchasini kommunikativ ta'sirning saqlanishi bilan bog'laydi. Komissarovga ko'ra, tarjimada asosiy

vazifa faqat semantik moslikni ta'minlash emas, balki nutqning funksional ta'sirini qayta yaratishdir [6: 51-55]. Bu fikr erkalash birliklarining gender-pragmatik funksiyasini tarjimada saqlash masalasini ilmiy asosda ko'rib chiqishga imkon beradi.

L. Barxudarov tarjima jarayonini tizimli til birliklari o'rtasidagi muvofiqlik sifatida izohlaydi. U til birliklarining ma'no va funksional yuklamasini ajratib ko'rsatadi. Barxudarovning qarashlari erkalash birliklarini tarjimada faqat leksik darajada emas, balki ularning kommunikativ vazifasi bilan birga tahlil qilish zarurligini ko'rsatadi [5: 72-78].

A. Shveytser tarjimani faqat lingvistik muvofiqlik emas, balki kommunikativ faoliyat sifatida talqin qiladi. Olim tarjimada matnning pragmatik yo'nalishi, kommunikativ vazifasi va adresatga ko'rsatadigan ta'siri muhim ahamiyat kasb etishini ta'kidlaydi. Uning qarashlari badiiy matn tarjimasida emotsional va kommunikativ yuklamaga ega birliklarni tahlil qilishda nazariy asos bo'lib xizmat qiladi [7: 48-50]. Shu sababli erkalash birliklari ham tarjima jarayonida nafaqat semantik mazmuni, balki ular orqali ifodalangan kommunikativ munosabat bilan birgalikda ko'rib chiqilishi mumkin.

Demak, yuqoridagi nazariy qarashlar erkalash birliklarini pragmatik va gender jihatdan tahlil qilish uchun muhim metodologik asos yaratadi. Ushbu yondashuvlar erkalashning nutqiy harakat sifatidagi tabiati, ijtimoiy masofa va yaqinlikni ifodalashdagi o'rni hamda genderga xos kommunikativ xususiyatlarini izohlash imkonini beradi. Dialogik matnda erkalash birliklari qahramon xarakteri, ijtimoiy maqomi va munosabat dinamikasini aks ettiruvchi muhim omil sifatida namoyon bo'ladi. Shu nuqtayi nazardan, ularni badiiy tarjima kontekstida semantik va kommunikativ yuklamasi bilan birgalikda tahlil qilish mazkur masalaning nazariy va amaliy jihatlarini yanada aniqlashtirishga xizmat qiladi.

Metodlar. Mazkur tadqiqot badiiy tarjimada erkalash birliklarining gender-pragmatik funksiyasini aniqlashga qaratilgan kompleks tahliliy yondashuv (kontekstual, pragmatik, gender va qiyosiy tarjima tahlili) asosida amalga oshirildi. Tadqiqot materiali sifatida Uilyam Shekspirning "Romeo va Julyetta" (RJ) hamda "Hamlet" (H) asarlari tanlab olindi. Ushbu asarlar M. Shayzoda va J. Kamol tomonidan tarjima qilinib, dialogik tuzilishga boyligi, erkak va ayol qahramonlar o'rtasidagi munosabatlarning dinamik xarakteri hamda erkalash birliklarining faol qo'llanishi bilan ajralib turadi. Matndan erkalash mazmunini ifodalovchi leksik birliklar tanlab olinib, tahlilga tortildi.

Natijalar. Asarlardan quyidagi erkalash ma'nosini ifodalovchi leksemalar tanlab olindi:

	U. Shekspir	M. Shayxzoda	J. Kamol
Umumiy erkalash	<i>good (name) (RJ; H)</i>	<i>aziz (ism), azizim</i>	<i>aziz (ism), azizim (ism)</i>
	<i>(my) love (RJ)</i>	<i>ishqu savdom, sevganim, sevikli yor, yorim, nuridiydam, jonim, jonginam, sevgim, sevgilim</i>	<i>sevgilim, jonim, sevar yorim, suyukli yorim, malikam, sevikligim,</i>

	<i>my soul (RJ)</i>	<i>jonim, bekam, quvonchim</i>	<i>jonim, bekam, shirin jonim, ko'zimning nuri</i>
	<i>my dear (RJ; H)</i>	<i>azizim, jonim, sevganim, seviklim, sevikli er,</i>	<i>sevgilim, jonim, suyukli yorim, aziz</i>
	<i>sweet (name) (RJ; H)</i>	<i>mehribonim, jonim, aziz, qumriginam</i>	<i>shirin-shakar enajonim, jonim</i>
Faqat erkaklarga qaratilgan erkalash	<i>gentle (name)* (RJ; H)</i>	<i>qadrdonim, aziz, azizim</i>	<i>aziz, azizim</i>
	<i>my lord (RJ; H)</i>	<i>egam, erim, yorim, mehrim-mahbubim, sohibim, shaxzodam</i>	<i>erim, suyukli yorim, sohibim, shaxzodam</i>
	<i>my true knight (RJ)</i>	-	<i>sevar yor</i>
	<i>(my) sweet lord (H)</i>	<i>aziz shahzodam, shaxzodam</i>	<i>aziz shahzodam, shaxzodam</i>
Faqat ayollarga qaratilgan erkalash	<i>my lady (RJ)</i>	<i>malikam, sohibam, rafiqam, yorim</i>	<i>go'zal yorim, malikam, rafiqam, yorim, sevar yorim</i>
	<i>ladybird (RJ)</i>	<i>qumrim</i>	<i>ovunchog'im</i>
	<i>my wife (RJ)</i>	<i>xotinim, rafiqam</i>	<i>rafiqam</i>
	<i>angel (RJ)</i>	<i>malak</i>	<i>malagim</i>
	<i>fair (name)* (RJ; H)</i>	<i>go'zal</i>	<i>ofatijon, go'zalsan</i>
	<i>pretty lady (H)</i>	<i>sevimli do'ndiqcha qizim</i>	<i>azizim</i>
	<i>sweet flower (RJ)</i>	<i>gul</i>	<i>gulim</i>
	<i>nymph (H)</i>	<i>pari</i>	<i>pari</i>
	<i>a rose of May (H)</i>	<i>gulginam</i>	<i>chechagim</i>
	<i>sweet lady (H)</i>	<i>qumriginam</i>	<i>jonim</i>
<i>sweet queen (H)</i>	<i>malika</i>	<i>malikam</i>	

* "Gentle" sifati asosan erkaklarga nisbatan qo'llanilib, RJ asarida bir marta enagaga nisbatan ishlarilgan; "fair" sifati ikkala asarda ham ko'pincha ayollarga nisbatan qo'llanilib, RJ asarida bir marta Romeoga qaratilgan.

Muhokama. Olingan natijalar shuni ko'rsatadiki, erkalash birliklari har ikki tragediyada mavjud bo'lsa-da, ularning kommunikativ vazifasi, gender konfiguratsiyasi va pragmatik yuklamasi sezilarli darajada farqlanadi.

Birinchiidan, erkalashning subyekt va adresat tizimi jihatidan sezilarli tafovut kuzatiladi. "Romeo va Julietta" asarida erkalash o'zaro, simmetrik va romantik diskursga asoslangan bo'lib, hissiy tenglik modeli shakllanadi. Erkak subyekt faol idealizator bo'lsa-da, ayol obraz ham javob reaksiyasi orqali diskursda teng ishtirok etadi. "Hamlet" asarida esa erkalash ko'proq erkak nutqiga bog'langan va gender jihatdan assimetrik xarakter kasb etadi. Ayol obrazning kommunikativ pozitsiyasi passivroq bo'lib, erkalash birliklari ko'pincha dramatik vaziyat bilan murakkablashadi. Bu holat erkalashning nafaqat hissiy

yaqinlik vositasi, balki psixologik ziddiyat indikatori sifatida ham xizmat qilishini ko'rsatadi.

Ikkinchidan, kommunikativ vazifa nuqtayi nazaridan farq aniqlanadi. Birinchi tragediyada erkalash birliklari yaqinlikni mustahkamlash, sadoqatni tasdiqlash va romantik idealizatsiyani kuchaytirish funksiyasini bajaradi. Ularning illokutiv kuchi pozitiv emotsional fon yaratishga qaratilgan. Ikkinchi tragediyada esa erkalash birliklari ikki qatlamli pragmatik yuklamaga ega: ular bir tomondan yaqinlik signali bo'lsa, ikkinchi tomondan ichki ziddiyat, beqarorlik yoki masofa yaratish vositasi bo'lishi mumkin. Demak, gender-pragmatik funksiyaning barqaror yoki o'zgaruvchan bo'lishi asarning dramatik konsepsiyasiga bevosita bog'liq.

Uchinchidan, stilistik mexanizm va ekspressiv daraja ham gender-pragmatik funksiyani belgilovchi omil sifatida namoyon bo'ladi. Birinchi asarda metaforik va poetik vositalar orqali yaratilgan erkalash yuqori ekspressivlik darajasiga ega bo'lib, romantik diskursning markaziy elementi hisoblanadi. Ikkinchi asarda esa ekspressivlik o'zgaruvchan xarakterga ega: ayrim vaziyatlarda poetik, ayrim holatlarda esa keskin yoki sovuq ohang ustunlik qiladi. Bu esa tarjimada bir xil strategiyani qo'llash imkonini cheklaydi.

Tarjima jarayonida gender-pragmatik funksiyani saqlash masalasi muhim muammo sifatida yuzaga chiqadi. Jadval tahlili shuni ko'rsatadiki, birinchi asarda metaforik parallelizmni saqlash ustuvor strategiya bo'lsa, ikkinchi asarda pragmatik adaptatsiya va modulyatsiya ko'proq ahamiyat kasb etadi. Agar erkalash birliklari formal darajada to'g'ri berilib, biroq ularning illokutiv kuchi yoki gender pozitsiyasi o'zgartirilsa, natijada qahramonlar o'rtasidagi munosabatlar modeli buziladi. Xususan, simmetrik romantik diskursni assimetrik yoki neytral shaklga aylantirish asarning estetik konsepsiyasini o'zgartirishi mumkin.

Natijalar shuni ko'rsatadiki, badiiy tarjimada erkalash birliklari faqat leksik yoki stilistik birlik sifatida emas, balki gender-pragmatik konstruktsiya sifatida ko'rilishi lozim. Ularning funksiyasi qahramonlar o'rtasidagi hokimiyat, yaqinlik va emotsional intensivlik nisbatini ifodalaydi. Shunday ekan, tarjimon oldida asosiy vazifa – erkalashning semantik mazmunini emas, balki uning gender-pragmatik rolini adekvat qayta yaratishdir. Bu esa formal moslikdan ko'ra funksional-estetik moslikni ustuvor deb bilishni talab qiladi.

Xulosa. Xulosa sifatida shuni aytish mumkinki, badiiy tarjimada erkalash birliklari oddiy affektiv leksika doirasidan chiqib, gender-pragmatik munosabatlarni quruvchi va boshqaruvchi diskursiv mexanizm sifatida namoyon bo'ladi. Tadqiqotda "Romeo va Julyetta" hamda "Hamlet" tragediyalari va ularning M. Shayxzoda hamda J. Kamol tarjimalari qiyosiy tahlil qilinib, erkalashning semantik ko'lami, adresatga yo'naltirilganligi va kommunikativ vazifasi gender omili bilan chambarchas bog'liqligi aniqlandi. Natijalar shuni ko'rsatdiki, umumiy erkalash birliklari (*azizim, jonim, sevgilim* kabi) ikki asarda ham uchrasa-da, jinsga xos erkalashlar ("*my lord*", "*my lady*", "*angel*",

“*nymph*” kabi) munosabat ierarxiyasi va ijtimoiy roldagi farqlarni kuchliroq aks ettiradi. Erkaklarga qaratilgan erkalash ko‘pincha maqom, egalik yoki himoya semantikasini faollashtirsa, ayollarga qaratilgan birliklar idealizatsiya, go‘zallik va noziklik konseptlarini kuchaytiradi.

Tarjima nuqtayi nazaridan, erkalash birliklarining adekvatligi faqat lug‘aviy moslik bilan belgilanmaydi: ularning illokutiv kuchi, “positive politeness” strategiyasi sifatidagi vazifasi va implikativ mazmuni saqlangandagina gender-pragmatik ta’sir qayta yaratiladi. Shu bois tarjimon erkalashni “so‘z darajasi”da emas, “munosabat darajasi”da ko‘rib, kerak bo‘lganda modulyatsiya, pragmatik adaptatsiya va kompensatsiya orqali funksional-estetik moslikka erishishi lozim. Umuman olganda, erkalashning gender-pragmatik funksiyasini hisobga olish badiiy tarjimada qahramonlararo yaqinlik, ierarxiya va emotsional intensivlikni to‘g‘ri yetkazishning asosiy sharti ekanini tasdiqlaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. Austin J. L. How to Do Things with Words. – Oxford: Clarendon Press, 1962. – 166 p.
2. Brown, P., Levinson, S. C. Politeness: Some Universals in Language Usage. – Cambridge: Cambridge University Press, 1987. – 345 p.
3. Grice H. P. Studies in the Way of Words. – Cambridge, MA: Harvard University Press, 1989. – 406 p.
4. Lakoff, R. Language and Woman’s Place. – New York: Harper & Row, 1975. – 328 p.
5. Бархударов Л. С. Язык и перевод (Вопросы общей и частной теории перевода). – М.: Международные отношения, 1975. – 240 с.
6. Комиссаров В. Н. Теория перевода (лингвистические аспекты). – М.: Высшая школа, 1990. – 253 с.
7. Швейцер А. Д. Теория перевода: статус, проблемы, аспекты. – М.: Наука, 1988. – 215 с.
8. Shakespeare W. Romeo and Juliet / ed. by G. Blakemore Evans. – Cambridge: Cambridge University Press, 1984. – 288 p.
9. Shakespeare W. Hamlet. – London: Penguin Classics, 2005. – 342 p.
10. Шекспир В. Танланган асарлар: 5 жилдлик. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. Ж. 1. – 488 б.
11. Шекспир В. Танланган асарлар: 5 жилдлик. – Тошкент: Фафур Фулом номидаги Адабиёт ва санъат нашриёти, 1981. Ж. 3. – 640 б.
12. Шекспир В. Сайланма (Жамол Камол таржимаси). 3 жилдли. – Т.: ЎзР ФА “Фан” нашриёти, 2007. Ж. 1. – 615 б.
13. Шекспир В. Сайланма (Жамол Камол таржимаси). 3 жилдли. – Т.: ЎзР ФА “Фан” нашриёти, 2008. Ж. 2. – 653 б.